
MAJBURIYATINI UNUTGAN OTA JAVOBGARLIKKA TORTILDI



Fuqarolik ishlari bo'yicha Marg'ilon tumanlararo sudining 2022 yil 20-aprel kungi sud buyrug'iga asosan Qo'shtepa tumani, Balandmasjid MFY, Ko'prikboshi ko'chasida yashovchi X.A.dan fuqaro S.N.foydasiga 2 nafar voyaga yetmagan farzandlari ta'minoti uchun aliment undirish belgilangan edi.

Otalik majburiyatini bajarishdan bo'yin tovlagan qarzdor X.A 5 oy mobaynida jami 5.891.760 so'mlik aliment pullarini to'lamaganligi uchun Jinoyat ishlari bo'yicha Qo'shtepa tumani sudining 2022 yil 18-oktyabrdagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Mjtkning 47 prim 4-moddasi 1-qismidagi huquqbuzarlikni sodir etgan deb topilib, unga nisbatan 15 sutka ma'muriy qamoq jazosi tayinlandi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-10-19 08:02:23